




**M. BEHBUDIY NOMIDAGI SAMARQAND VILOYAT XALQ TA'LIMI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI
OSHIRISH INSTITUTI**

MAKTABGACA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM KAFEDRASI

BOLALARGA BAXSHIDA UMR

SAMARQAND-2010

Bolalarga baxshida umr. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun metodik tavsiyanoma. Samarqand VPKQTMOI. 2010-yil. 18 bet.

Tuzuvchi: D.Rabbanayeva – maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi.

Taqrizchi: R.Jo'raqulov – Sam.VPKQTMOI dotsenti

Ushbu tavsiyanomada ilg'or tajribali o'qituvchining ish tajribasidan, dars ishlanmalaridan namunalar berilgan bo'lib, yosh o'qituvchilarga metodik yordam bo'ladi degan umiddamiz.

M.Behbudiy nomidagi Samarqand viloyat pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, 2010-yil.

Eng ezgu niyat - barkamol avlodni tarbiyalash Bunda o'qituvchining o'rni qanday?

“Barcha ezgu niyatlarimizning markazida farzandlarimizni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan sog'lom qilib o'stirish, ularning baxtu- saodati, faravon kelajagini ko'rish dunyoda hech kimdan kam bo'lmaydigan avlodni tarbiyalash orzusi turadi”- deydi Prezidentimiz I.A.Karimov Konstitutsiyaning 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqida.

Ana shu ezgu niyatni amalga oshirish borasida respublikamizda maqtovg'a arzigulik bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Prezidentimizning tashabbusi bilan 2010-yilning “Barkamol avlod” yili deb e'lon qilinishi ham mamlakatimiz yoshlariga berilayotgan yuksak e'tibor belgisidir.

Inson kamolotida ilm egallash, dunyoqarashni to'g'ri shakllantirish, aqliy rivojlanish, jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shish ulug' fazilatlardan hisoblanadi.

Xo'sh, yosh avlodning ana shunday ulug' fazilatlarini to'g'ri shakllantirishda o'qituvchining o'rni qanday?

Bola maktabda o'qir ekan, nafaqat ta'lim-tarbiya oladi, balki shaxs sifatida shakllanadi ham. Bu davrda vaqtining asosiy qismini maktabdosh, sinfdosh do'stlari va ustozlari davrasida o'tkazadi. Shunday ekan bola tarbiyasida atrofidagi do'stlari va ustozlarining ta'siri beqiyosdir.

Bolani har tamonlama rivojlangan, barkamol shaxs qilib tarbiyalash uchun o'qituvchidan haqiqiy pedagogik odob va pedagogik mahorat, shaxsiy ijtimoiy sifatlar talab qilinadi. Ana shu sifatlarga ega bo'lgan o'qituvchigina o'quvchiga qanday muomalada bo'lishni, organilishi lozim bo'lgan bilimni tadbiq etishning turli usullarini yaxshi biladi, odob-axloq qoidalarini, shaxsiy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni to'g'ri singdira oladi. Barchamizga ayonki, kerakli bilimni o'z vaqtida o'zlashtirgan, odobli va tarbiyali, shaxsiy, milliy, umuminsoniy qadriyatlarni to'g'ri anglay olgan, ma'naviy dunyosi sog'lom o'quvchigina komil inson bo'la oladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatib kelayotgan barcha ustoz va murabbiylarimiz, avvalambor, o'zlari yetarlicha o'qish savodxonligiga ega bo'lishlari shart. Chunki, endigina 6-7 yoshga to'lgan bolalarimiz ilk maktab ostonasiga qadam qo'yan kundan boshlab savodxonlik darajasida faqatgina ustozining so'zini tan oladi. Ularning fikrini hattoki, ota-onalar ham o'zgartirishi mushkul. Shu sababdan barcha o'qituvchilar: savodiy, ilmiy, nutqiy, ijodiy, mantiqiy, kasbiy savodxonliklarga ega bo'lishlari shart.

Samarqand shahridagi 33 - umumta'lim maktab o'qituvchisi Boliqulova Zarifaxon yuqorida sanab o'tilgan, zamonaviy o'qituvchidan talab qilinayotgan ilmiy, nutqiy, ijodiy, mantiqiy, kasbiy savodxonlikka ega bo'lgan boshlang'ich sinf o'qituvchisidir. Ushbu tavsiyanoma Zarifaxonning ish faoliyati va ijodi haqidadir.

BOLALARGA BAXSHIDA UMR

Boliqulova Zarifaxon Samarqand shahar XTB tomonidan 2008-yil “Xalq ta’limi a’lochisi” unvoni bilan taqdirlandi. Maktab jamoasi, o‘quvchilari, otalar bu unvonga Zarifaxonning naqadar loyiq ekanligini bildirshib, chin dildan quvonishdi.

Ijodkor o‘qituvchi Boliqulova Zarifaxon Qo‘chqorovna 1966-yil, 1-iyulda Payariq tumanida tug‘ildi. Oilali, sevimli rafıqa, bir qiz va bir o‘g‘ilning mehribon onajonidir.

Mehnat faoliyatini 1986-yilda Samarqand shahar 22- bolalar bog‘chasida tarbiyachilikdan boshladi. 1991-yil Past Darg‘om tumanidagi 3-o‘rta maktabda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bo‘lib ishlay boshladi va o‘z ishiga bo‘lgan sadoqati, ijodkorligi tufayli I toifali o‘qituvchi deb topildi.

1996-yildan hozirgi kunga qadar Samarqand shahar 33- umumta’lim maktabda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bo‘lib ishlab kelmoqda.

O‘quvchilari shahar olimpiadalarida faol qatnashib, ona tili, o‘qish, matematika fanlaridan faxrli o‘rinlarni egallab kelishmoqda.

2003-yil shahar miqyosida o‘tkazilgan “Yilning eng yaxshi o‘qituvchisi” ko‘rik-tanlovida qatnashib faxrli II o‘rinni egalladi.

2005-2008 yillarda mehnat ta’limi fanidan tajriba-sinov maydonchasida ishlab, RXTBda o‘z ishini muvaffaqiyatli yoqladi.

Zarifaxon yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish bilan birga, 2009-yildan boshlab, Samarqand VPKQTMOIning boshlang‘ich ta’lim kursi tinglovchilariga zamonaviy va namunaviy darslar, ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarni yuqori saviyada o‘tkazib kelmoqda.

Darslarida innavatsion texnologiyalardan, didaktik o‘yinlardan, axborot texnologiyalaridan, zamonaviy ko‘rgazma qurollardan foydalanib, o‘quvchilarining bilim samaradorliklarini yuqori ko‘rsatgichlarda bo‘lishiga erishmoqda.

Boshlang‘ich ta’lim ustasi Boliqulova Zarifaxonni tom ma’noda bolalar jonkuyari, o‘z kasbining fidoyisi deyish mumkin. 1999-yilda og‘ir kasallik

sogʻligiga jiddiy xavf solgan vaqtda ham doimo bolajonlarini, maktabni oʻyladi. Shifokorlarning qattiq ogohlantirishlariga qaramay, yana jonajon maktabiga qaytdi. Umrini kasallikkka emas, jajji bolajonlariga baxshida etishni afzal bildi. Oʻzining kuchli matonati, jamoasi va ota- onalarning ishonchi, oʻquvchilarining quvonchi saraton degan dahshatli kasallikni yega oldi.

Zarifaxon oʻzining izlanuvchanligi, tirishqoqligi, xush muomalasi bilan kasbdoshlarining, ota-onalarning hurmatiga sazovor boʻlmoqda. Uning ajoyib shoʻxliklarini, goʻzal tabassumini juda qadrlashadi ular.

Boliqulova Zarifaxonning eng buyuk maqsadi – Mustaqil Oʻzbekistonning kelajagi boʻlgan yosh avlodni Vatanga, xalqqa xizmat qiluvchi sadoqatli insonlar qilib tarbiyalashdir. Shu maqsad yoʻlida umrini bolalarga baxshida etish. Zarifaxonning shu buyuk maqsadiga erishib yurishiga biz ham tilakdoshmiz.

Ushbu tavsiyanomada Xalq taʼlimi aʼlochisi Boliqulova Zarifaxonning noanʼanaviy usullardan foydalanib tashkil etgan dars ishlanmalaridan namunalar keltiriladi.

Umumlashtiruvchi darslarga albatta maktab rahbarlari, oʻqituvchilar, ota-onalar taklif etiladi va quyidagicha taklifnomalar tarqatiladi.

Taklifnoma

Assalomu alaykum hurmatli ota – onalar.
Sizni 2010-yil, 24-dekabr kuni oʻqish fanidan
“Kumush qish- misoli oqqush” mavzusida boʻladigan
ochiq hisobot darsimizga taklif etamiz.
Cheksiz ehtorom bilan
2 -“A” sinf oʻquvchilari va Zarifa Qoʻchqorovna.



Mavzu: Umumlashtiruvchi dars

III sinf

Darsning maqsadlari:

1. Ta'limiy maqsad: 2-sinfda o'tilganlarni takrorlash asosida o'quvchilarga so'zlarni mazmuniga qarab ajratishni, so'zlardan gap tuzishni o'rgatish. Shaxs va narsa nomini, belgisini, harakatni bildirgan so'zlardan gaplar tuzish. Nutq, matn, gap haqida tushuncha berish.

2. Tarbiyaviy maqsad: Nutqimizdagi mavjud so'zlardan unumli va to'g'ri foydalanishni tushuntirish bilan birga, ona tilimizni qadrlashga o'rgatish.

3. Rivojlantiruvchi maqsad: Har bir gap biror maqsad bilan aytilishini tushuntirish, gap va matn tuzish malakalarni rivojlantirish.

Darsning usuli: Interfaol.

Darsning turi: Sayohat.

Darsning jihozi: Rangli rasmlar, didatik materiallar, tarqatma varaqalar.

Darsning borishi:

Tashkiliy qism: Salomlashish, navbatchi axborotini tinglash, o'quvchilarning darsga hozirligini tekshirish.

Darsning shiori:

Chiroyli yoz, yozsang xat,

Chunki bu ham bir san'at.

O'quvchilar 4 guruhga bo'linishadi.


1- guruh – "Nihol"

2- guruh – "Ko'chat"

3- guruh – "Yaproqchalar"

4- guruh – "Mevalar"

O'tilgan mavzuni "Klaster" usuli orqali mustahkamlanadi.



monitoriga qaratiladi. Ekranida kapalak, sigir, gul, bola rasmlari namoyish etiladi.

Topshiriq:

Ekranida chiqqan rasmlarni harakatlari bilan ifodalab, daftaringizga yozing.

Gul ochiladi, o'sadi.

Kapalak uchadi qo'nadi.

Sigir ma'raydi o'tlaydi.

Bola yugurayapti, o'ynaydi.

O'quvchilarning javoblari eshilib, izohlanadi va quyidagi ta'rif beriladi.

Demak, harakatni bildirgan so'zlar, nima qildi?, nima qilayapti?, nima qiladi? kabi so'roqlarga javob bo'ladi.

Bugun biz siz bilan tabiat qo'yniga sayohat qilish jarayonida narsalarning harakatini kuzatdik va ular qanday harakatlanishini o'rganib oldik. Men narsa va kishilar nomlarini aytaman, siz ularning harakatini, belgisini, sonini aytasiz. Noto'g'ri aytgan o'quvchilar o'yindan chiqishadi.

1. Biz toqqa sayohatga
2. Tog' yon bag'ri ... o't bilan qoplandi.
3. Tog'da ... qip – qizil bo'lib ochildi.
4. Qushlar yoqimli
5. Men ... sinfda o'qiyman.

O'quvchilarning javoblari rag'batlantiriladi.

Dam olish daqiqasi.

“Kapalak” qo'shig'i magnitofondan qo'yib eshittiriladi. Bolalar tinglab, raqsga tushishadi.

Yangi mavzuni mustahkamlash.

Topshiriq musobaqa usulida doskada bajariladi.

Guruh o'quvchilari kim?, nima qiladi?, nechta?, qanday? savollariga javob yozib nomni, belgini, harakatni bildirgan so'zlar tagiga ikki, to'liqinli, to'g'ri chiziqlar chizadilar.

“Nihol”

O'qitadi, o'qiydi, oq, sakkiz, qalam, o'ynaydi.

“Ko‘chat”

Yozayapti, shifokor, daftar, ming, qizil, arralayapti.

“Yaproqchalar”

Ishlaydi, katta, olti, yozadi, bemor, o‘qituvchi.

“Mevalar”

Yuradi, oladi, sigir, besh, qora, to‘qqiz.

O‘quvchilar yozgan so‘zlarini o‘qiydilar va nechta so‘z yozganligiga qarab baholanadilar. Topshiriq tekshirildi va g‘olib guruh rag‘batlantiriladi.

Guruhlar gaplarni turlarga ajratish bo‘yicha bellashadilar.

Dehqon ter to‘kib mehnat qiladi.

Yo‘lda kimlarni uchratdingiz?

Laylo buvisining yoniga keldi.

Gulnora nima qilmoqchisan?

Yoz fasli juda ajoyib!

Ikki bola qayoqqa ketayapti?

Uyimizga mehmonlar kelishadi.

Eh, muzdek suvda cho‘milish qanday rohat!

Darsni yakunlash.

Guruhlarning olgan ballari hisoblanib, g‘olib guruh aniqlanadi. Darsga faol qatnashgan o‘quvchilar alohida “Rag‘bat” kartochkalari bilan taqdirlanadi.

Uyga vazifa.

Harakatni, belgini bildirgan so‘zlarni topib yozish.

Mavzu: Serquyosh o‘lka. Zafar Diyor

IV sinf

Darsning maqsadlari:

1. Ta’limiy: Zafar Diyorning “Serquyosh o‘lka” she’ri bilan tanishtirish, jannatmakon yurtimiz tabiati, shaharlaru bog‘-rog‘lari, unumdor tuprog‘i, sofdil, bag‘rikeng insonlari, ijodkor yoshlari, baxtiyor bolalari haqida ma’lumot berish.

2. Tarbiyaviy: O‘quvchilarni ona Vatani bilan faxrlanishga, muqaddas zaminning har qarichini aziz bilib, asrab -avaylab, e’zozlashga o‘rgatish. Yangi

mavzuni Prezidentimiz Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch» asaridagi muhim m'lumotlar bilan bog'lagan holda mukammal tanishtirish orqali yosh avlod qalbiga, yurtiga nisbatan muhabbat va sadoqat tuyg'ularini singdirish.

3. Rivojlantiruvchi: Bolalarga nutqimizda ishlatiladigan ayrim so'zlarning mazmun, mohiyatini tushuntirish. She'ni ifodali va yoddan o'qish malakasini oshirish hamda takomillashtirish.

Dars metodi: Izohli o'qish, suhbat, bahs-munozara.

Dars jihozi: I.A.Karimovning «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» kitobi, O'zbekistonning bogu-rog'lari, qir-adirlari tasvirlangan rasmlar, plakatlar. Zafar Diyor portreti, asarlari, shoir ijodi haqidagi ma'lumotlar. Krossvord, texnikvositalar.

Darsning borishi:

Tashkiliy qism: Navbatchi axboroti tinglanadi. Kichik she'riy suhbat uyushtiriladi.

O'qituvchi: Bolalar biz qanday bolalarmiz?

Biz chaqqonmiz, chaqqonmiz, ustozlarga yoqqanmiz.

Bir sinfda jam bo'lib, hamfikir hamdam bo'lib,

Quvnoq saboq tinglaymiz, zerikishni bilmaymiz.

Har kun tongda turamiz, yuz qo'limiz yuvamiz,

Choyni ichib, kiyinib, maktab tomon yuramiz.

Ustozimiz mehribon, bizni kutib oladi,

Har so'zida yurakka, Vatan ishqin soladi.

O'quvchilar guruhlariga bo'linishdi, har bir guruh o'z shiorini aytadi.

«Vatanparvar» guruhi:

Oylar o'tib yilma-yil kuch qudratga to'lamiz,

Ona tuproqni asrab vatanparvar bo'lamiz.

«Iymon» guruhi:

Qalbimizga quloq solsak, kelar bir nido,

Kerak bo'lsa Vatan uchun jonimiz fido.

«Sadoqat» guruhi:

Avlodu ajdodlar nomin yodda saqlaymiz,

Kunlar kelib farzandlik burchin, albat oqlaymiz.

Har bir guruh o'ziga sardor saylaydi, ularga alohida-alohida topshiriqlar beriladi. Guruh sardori eng faol o'quvchiga ragbat tariqasida tomchi tasvirlangan rangli kartochka beradi. Guruhlar ishini o'qituvchi baholab boradi.

Topshiriqlar:

«Vatanparvar» guruhiga. Mustaqil O'zbekistonimizda nishonlanadigan bayramlar va tarixiy sanalarni aytib bering.

«Iymon» guruhiga. O'zbekistonning mustaqillikka erishgandan keyingi yutuqlari haqida nimalarni bilasiz?

«Sadoqat» guruhiga. O'zbekiston qaysi xorijiy mamlakatlar bilan do'stona aloqalar o'rnatgan?

Javoblar o'quvchilar tomonidan to'ldiriladi. Shundan so'ng o'quvchilar zihnini oshirish maqsadida har bir guruhga «O'zbekiston» so'zi yozilgan krossvord beriladi.

1. Suvda suzadigan qush. 2. Poliz ekini. 3. Xat tashuvchi qush. 4. Tasvirga oluvchi vosita. 5. Juft son. 6. Qulfhing ochqichi. 7. Bemor. 8. Eng katta suvdasuzuvchi hayvon. 9....- bozorda sotilmas. 10. Tabarruk zot.

Topshiriqni birinchi bo'lib bajargan guruh ragbat kartochkasini oladi. Yangi mavzuni o'rganishdan oldin o'quvchilarga quyidagi test savollari beriladi:

1. She'rni davom ettiring. Do'stlar mening yurtimni....

a) Qirg'iziston, deydilar b) Turkmaniston, deydilar d) O'zbekiston, deydilar

2. «Davlat» ertagining qahramonlari kimlar?

a) podsho va vazirlar b) dehqon va uning bolalari d) kampir va qizcha

3. «O'zbekiston» she'rini kim yozgan?

a) Zafar Diyor b) Abdulla Oripov d) Erkin Vohidov

4. O'zbekistonning poytaxti qayer?

a) Buxoro b) Toshkent d) Samarqand

5. «Bulbul chamanni, odam..... sevar» maqolidagi tushib qolgan soz?

a) farzandni b) Vatanni d) gulni

6. «Xalq» she'rini kim yozgan?

a) Cho'lpon b) Abdulla Oripov d) Zafar Diyor

7. «Chizolmaysan, - dedi Samad tap tortmay. Bu senga shunchaki rasm emas». Bu so'zlar qaysi hikoyadan olingan?

a) «Assalom «Neksiya» b) «Xarita» d) «Asrga tatigulik kun»

8. «Toshkentnoma» dostonining muallifi kim?

a) Miraziz A'zam b) Maqsud Shayxzoda d) Cho'lpon.

O'qituvchi: Prezidentimiz I.A.Karimovning «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» asari hozirgi kunda yoshlarimiz uchun Vatanimiz tarixi va kelajagini o'rganishda muhim manbaa sifatida xizmat qilmoqda. Asardagi: - «Barchamizga ma'lumki, inson o'zligini anglagan, nasl-nasabini chuqurroq bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib, ulg'aya boradi. Bu ildiz qancha teran bo'lsa, tug'ilib o'sgan yurtga muhabbat ham shu qadar yuksak bo'ladi. Albatta, jahon - keng, dunyoda mamlakat ko'p, lekin bu olamda betakror ona yurtimiz, O'zbekistonimiz yakka-yu yagona. Bu go'zal yurt, bu muqaddas zamin faqat bizga atalgan. Mana shu ulug' tuyg'u har birimizning dilimizga jo bo'lishi, hayotimizning mazmuniga aylanishini istardim» kabi purhikmat satrlarga to'xtalib o'tiladi.

Yuqoridagi fikrlar Vatanimizning tarixiy obidalari, poytaxtimizning diqqatga sazovor joylari, o'quv markazlari tasvirlangan slaydlar orqali yanada yorqinroq ochib beriladi.

O'qituvchi: Bolajonlar, bugun Zafar Diyorning «Serquyosh o'lka» she'rini o'qib-o'rganamiz. Qani, ayting-chi, biz o'tgan darslarda shoirning yana qaysi she'rlarini o'rgangan edik?

O'quvchi: «Archa qo'shig'i, «Binafsha», «Qushlar haqida qo'shiq, «Kel, uchaylik shimolga».

Shoirning tarjimai holi haqida ma'lumot beriladi va uning birinchi to'plamiga kiritilgan she'rlaridan parchalar o'qiladi. «Serquyosh o'lka» she'rining mazmuni tushuntiriladi va o'quvchilarga topshiriqlar beriladi.

1. She'rni ichingizda, ovozsiz o'qing.
2. Qaysi to'rtlik sizga yoqdi?
3. Ma'nosi tushunarsiz bo'lgan so'zlarni daftaringizga ko'chirib yozing. O'quvchilar o'zlariga yoqqan to'rtlikni o'qib beradilar va nima uchun yoqqanini aytadilar.

Lug'at ishi

Madh – maqtov; tortiq – sovga, dong'i – dovrug'i, navo – kuy.

«Beg'ubor» so'ziga ma'nodosh so'zlar topish topshiriladi (toza, g'uborsiz, tiniq, sof).

Mustahkamlash

She'r qismlarga bo'lib o'qitiladi va mustahkamlash uchun savollar beriladi.

1. Shoir Vatanini, uning tabiatini, beg'ubor havosini qanday ta'riflagan?
2. She'rda o'lkamizning qir, adir, bog'lari tasvirlangan o'rinlarni toping-chi?
3. Vatanimizning yil fasllariga qanday ta'rif berilgan?
4. Nima uchun shoir O'zbekistonni "Serquyosh o'lka" deb nomlagan?

Guruhlar o'rtasida ifodali o'qish musobaqasi o'tkaziladi. (o'quvchilar asar mazmunini to'liq anglash barobarida she'riy nutqning o'ziga xosligi haqida ham tushunchaga ega bo'ladilar).

Dam olish daqiqasida Vatanimizning go'zal manzaralari tasvirlangan disk orqali o'quvchilar qalbiga vatanparvarlik hamda ona tabiatimizga mehr-muhabbat tuyg'usi singdiriladi.

Uyga vazifa:

She'rni ifodali o'qish va yod olish.

Baholash: O'quvchilar to'plagan tomchilar shaklidagi kartochkalari, ya'ni rag'bat kartochkalari hisoblab chiqiladi. G'olib guruh va faol o'quvchilar rag'batlantiriladi. Dars Vatan haqidagi qo'shiq bilan yakunlanadi.

Mavzu: 14- yanvar – Vatan himoyachilar kuni.

Vatan posbonlari

Tadbir maktab faollar zalining sahnasida o'tkazishga mo'ljallagan.

Sahnada «Mardlar qo'riqlaydi Vatanni!», «14- yanvar – Vatan himoyachilari kuni» kabi shiorlar ilingan. Sahnaga boshlovchilar chiqib kelishadi.

1-boshlovchi:

*O'zbekiston chaman diyor,
Yashnar bog'u-bo'stonlari.
"Oq oltin"i mo'l-ko'l, bisyor,
Xazinaga boy konlari.
Qo'riqlaydi o'g'lonlari,
Ona Vatan posbonlari.*

2-boshlovchi: Assalomu alaykum, hurmatli va aziz ustozlar! Go'zal qizlaru, shunqor yigitlar! Vatanimizning mard va jasur o'g'lonlari!

1-boshlovchi: Assalomu alaykum, tadbirimizda ishtirok etayotgan, mehribon ota-onalar, davramizga fayz qo'shib turgan mo'tabar mehmonlar!

2-boshlovchi: Vatan himoyachilari kuniga bag'ishlab o'tkazilayotgan «Vatanimiz posbonlari» deb nomlangan bayram tadbirimizga xush kelibsiz.

1-boshlovchi: Har bir insonning kindik qoni to'kilgan muqaddas tuprog'i, o'z yurti, ona Vatani bo'ladi.

2-boshlovchi: Ha, dar haqiqat, ana shu muqaddas zaminni ko'z qorachig'iday asrash, uning sarhadlarini yovuz kuchlardan qo'riqlash har bir farzandning sharafligi burchidir.

1-boshlovchi: Shu yurtda kamol topgan, non-tuzini totgan har bir kishi Vatani astoydil sevishi, uning koriga yarashini oliy burch deb bilmog'i lozim.

2-boshlovchi: O'zini o'zbek elining bek o'g'liman, deb hisoblagan har bir yigit ertaga Vatan shunqoriga aylanishi - shubhasiz. Zero, Prezidentimiz Islom Karimov aytganiday: «Dunyoda «Vatan» so'zidan aziz va yurakka yaqin kalom topilmagani kabi Vatan himoyachisi bo'lishdan ortiq shon-sharaf ham yo'qdir».

1-boshlovchi: Mustaqil O'zbekistonimizni qo'riqlayotgan O'zbekiston Qurolli Kuchlari bugun 19 yoshga to'ldi. U xalqimiz tinchligi va osoyishtaligini ko'z qorachig'iday asraydi. Bolalarning sog'lom kamol topishi, ota-ona va oila bilan birga yashash, ta'lim olish va boshqa huquqlarini himoya qiladi va kafolatlaydi.

2-boshlovchi: Ixcham, tezkor va harakatchan, zamonaviy qurol-yarog' va texnika bilan ta'minlangan milliy armiyamiz sarhadlarimiz daxlsizligi, yurtimizdagi tinchlik va barqarorlikni buzishga qaratilgan har qanday yovuz harakat va xurujlarni bartaraf etish va ularga munosib zarba berishga qodir.

1-boshlovchi: Ha, darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari mustaqilligimizning muhim kafolati, ozod va obod Vatanimizdagi har qanday tajovuzlardan himoya qilishga qodir ishonchli qalqondir. Bugun armiyamiz eng zamonaviy qurol-yarog'li va harbiy texnika, moddiy-texnika vositalari bilan jihozlangan.

2-boshlovchi: Yigitlik burchini ado etishga chog'langan har bir askar ona-Vataniga, xalqiga va Prezidentiga o'g'lonlik va'dasi sifatida sodiqlik to'g'risida Harbiy qasamyod qabul qiladi. Askarning qalbidan otilib chiqayotgan bu so'zlar uning kindik qoni to'kilgan muqaddas tuproq, avlod-ajdodlari hoki yotgan tabarruk zamin, uning mustaqilligi va hududiy yaxlitligini avaylab-asrash, o'z xalqining tinchligi, sho'x-shodon bolakaylarning beg'ubor damlari, nurli kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi tiammaga ham nasib qilavermaydi.

1-boshlovchi:

*O'tkir ko'zli lochinlari,
Ko'zday asrar sarhadlarin.
Uyda kutar Barchinlari,
Alpomishu Farhodlarin.
Qaddi baland osmonlari,
Ona Vatan posbonlari.*

2-boshlovchi:

*O'zbekimning nomus, ori
Oriyatli askarlari.
Momolarim iftixori
Burgutmisol shunqoriari.
Toza vijdon, iymonlari,
Ona Vatan posbonlari.*

1-boshlovchi: Diqqat qiling, sahnada bo'lajak Vatan posbonlari!

*Sahnaning o'ng tomonidan shahdam qadamlar bilan bir qator saf tortgan
bolalar O'zbekiston xalq shoiri To'ra Sulaymonning «Askarlar» noml jangovar
qo'shig'ini aytib chiqib kelishadi.*

Yakka ovoz: Bir, ikki, uch,

Xor: Saflarimiz zich.

Yakka ovoz: Baland bo'lsin parvozing

Xor: Samolarni uch.

Yakka ovoz: Bir, ikki, uch,

Xor: Doim zafar quch.

Yakka ovoz: Quدراتimiz qoshida,

Xor: Dushman makri puch.

Yakka ovoz: Bir, ikki, uch,

Xor: Tanga sig'mas kuch.

Yakka ovoz: Vatan uchun ko'ksimiz,

Xor: Qalqon va qilich.

Yakka ovoz: Bir, ikki, uch,

Xor: Olam bo'lsin tinch.

Yakka ovoz: Ona yurtni qo'riqlash,

Xor: Eng muqaddas burch!

*Qo'shiq tugashi bilan «To'xta!» degan buyruqomuz ovoz eshitiladi. Ular turgan
joyida uch marta deysinib, keyin to'xtashadi. «Sahnaga yuzlanib, o'ngga buril!»
degan buyruq beriladi. Keyin «Uch qadam orqaga!» degan ovoz yangraydi.
Hamma buyruqqa mos ravishda orqaga tisarilib, sahnaga yuzlanib tizilib
turishadi.*

*Shu joyda qizlar ishtirokida raqs ijro etiladi. Raqs tugagach, o'quvchilar
saf dan ajralib chiqib, navbat bilan shoir Rauf Tolibning «O'zbek askari so'zi»
nomli she'rini o'qishadi.*

1-o'quvchi:

*Men askarman, doimo
Xushyorlik menga qurol.*

*Darrov sezaman, hatto
Shitirlasa, gar shamol.*

2-o'quvchi:

*Axir ona Vatanim
Tikkan menga ko'zini.
Fido etib bu jonim,
Oqlayman yurt tuzini.*

3-o'quvchi:

*Qo'riqlayman el tinchin,
Tonglarning kulgusini.
Keksalar baxt, sevinchin,
Go'daklar kelgusini.*

4-o'quvchi:

*Mustaqil ona Vatan
Mening ko'z qarog'lrnda.
Axir shu yurt, shu chaman,
O'stirdi quchog'imda.*

5-o'quvchi:

*Bu askarlik hayotim
Yigitlikka sinovdir.
Tinchlik - hayot-mamotim,
Yurtim unga garovdir.*

6-o'quvchi:

*Kunduz bolsin yoki tun,
Issiqmi, sovuqmi yo,
Farqi yo'qdir men uchun.
Hushyordirman doimo.*

*Yigitlar ijrosida jangovor raqs ijro etiladi, Raqs tugagach, to'rt nafar o'quvchi
safdan ajralib chiqib, shoir Mirzo G'olibning «Ona Vatan uchun xizmat
qilaman» nomli she'rini ko'tarinki ruh bilan o'qishadi*

1-o'quvchi:

*Qurolim mehr-la ko'ksimga qo'yib,
Diyorim nomini ko'ksimga o'yib,
Xalqimni, elimni jonimdan suyib,
Ona Vatanimga xizmat qilaman.*

2-o'quvchi:

*Ajdodlar o'gitin yodimda saqlab,
Tinchlik kalomini doimo yoqlab,
Sharafli farzandlik burchimni oqlab,
Ona Vatanimga xizmat qilaman.*

3-o'quvchi:

Xalqimning ko'zidan yoshlar to'kilmas,

*Yigitlar bardoshi aslo bukilmas,
Musaffo osmonim bag'ri so'kilmas,
Ona Vatanimga xizmat qilaman.*

4-o'quvchi:

*Yurtboshim, elimga sodiqman doim,
Bizlarni qollasin o'zi xudoyim,
O'zbekim chekmasin zahmat iloyim,
Ona Vatanimga xizmat qilaman.*

Yuqori sinf o'quvchilari ishtirokida kichik sahna ko'rinishi ijro etiladi.

Ona: O'g'lim, o'sib-ulg'ayib, hash-pash deguncha Vatan koriga, el xizmatiga yaraydigan yigit bo'lib yetilganingni sezmay qolibman.

O'gil: O'zimning, mehribon oyijonim. Baxtinga siz, dadam, ukalarim omon bolsanglar, menga shuning ovzi yetadi. Mendan sira xavotir olmanglar.

Ona: O'lim, bilsang, harbiyda xizmat qilish hammaga ham nasib etavermaydi. Komandirlaringdan biri aytdi, chaqiriq yoshidagi yigitlarning hammasi ham test sinovlaridan o'ta olishmas ekan. Har o'ntasidan bittasi muddatli harbiy xizmatga jo'natilyapti ekan. Men sen bilan faxrlanaman.

O'gil: Oyijonim, men sizlarning yuzingizni yerga qaratmayman. «Vatan himoyachisi» degan nomga sodiq bo'lib, xalqimizga, yurtimizga sidqidildan xizmat qilaman. Axir Vatanni mardlar qo'riqlaydi-ku.

Ona: Rahmat, bolajonim! Oy borib, omon qayt! Yaxshi xizmat qilib, bergan tuzimni oqla. Biz seni kutamiz.

O'gil Xayr, onajon! Albatta, avvalo Vatanimga, keyin sizga munosib o'g'lon bolaman. (Keyin sahnaga yuzlanib) Aziz ukalarim! Yaxshi o'qib, yaxshi bilim oling! Sport bilan ko'proq va astoydil shug'ullaning! Ana shundagina qaddi-qomatingizni ko'rganda hammaning havasi keladigan sog'lom va baquvvat, gap-so'zlari bama'ni, Alpomish kelbat mard o'g'lonlar bo'lib ulg'ayasiz. Vatanga axir nimjon, kasalmand yigitlar emas, mardu maydonlar kerak!

Sahna ko'rmishi tugagach, bo'lajak askarlar bolalar shoiri Aziz Abdurazzoqning «Askar-askar oynaymiz» qo'shig'i ijro etadilar.

Yakka ovoz: Askar-askar o'ynaymiz,

Xor: Biz askar, biz askar.

Yakka ovoz: Askar-askar o'ynaymiz,

Xor: Siz askar, siz askar.

Yakka ovoz: Ikki tomon saf tortib,

Xor: O'ynaymiz, o'ynaymiz.

Yakka ovoz: O'q otishga yo'l bo'lsin,

Xor: Qo'ymaymiz, qo'ymaymiz.

Yakka ovoz: Biz ham kichik qo'riqchi,

Xor: Askarmiz, askarmiz.

Yakka ovoz: Yurtimizni tinch, omon

Xor: Asraymiz, asraymiz.

Qo'shiq tugagach, yana jangovor buyruqlar yangrab, yosh posbonlar shaxdam qadamlar bilan sahnadan chiqib ketishadi. Sahnaga boshlovchilar chiqadi.

1-boshlovchi: O'zbekiston zaminidagi bugungi tinch va osuda hayot, farovonlik xalqimizga istiqbol baxsh etgan bebaho ne'matlardandir. Milliy armiyamiz – O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari ana shu osudalik va farovonlikning muhim kafoloti va ishonchli qalqonidir.

2-boshlovchi: Yigitlarimiz armiya safida harbiy mutaxassisliklarni egallash bilan birga jismoniy va ma'naviy jihatdan chinilib, irodasi toblanmoqda, eng muhimi, ular Vatan himoyasi uchun doimo tayyor turadigan fidoyi insonlar bo'lib kamol topmoqda.

1-boshlovchi: O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining umumiy harbiy majburiyatni bajarish va harbiy xizmatni bilan bog'liq munosabatlar O'zbekiston Respublikasining 2002- yil 12- dekabrda «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonuni bilan tartibga solingan.

2-boshlovchi: Ushbu Qonunning 3-moddasida O'zbekiston Respublikasining xalqi va prezidentiga sodiqlik to'g'risida Harbiy qasamyod qabul qilinishi ko'zda tutilgan bo'lsa, uning 51-moddasida harbiy xizmatdan bo'yin tovlaganligi uchun amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortilishi pisanda qilinadi.

1-boshlovchi: «Yurtim tinch - men tinch, elimning boshiga tushgan kulfat - mening ham kulfatimdir» - degan o'y bugun har bir o'zbek o'g'lonining hayotiy shioriga aylangan, desak, xato qilmaymiz..

2-boshlovchi: Harbiy xizmatchilarni har tomonlama ijtimoiy va ma'naviy himoyalash kun sayin kuchayib borayotganini kuzatar ekansiz, bobokalonimiz Amir Temur bejizga: «Boy mamlakatning askari baquvvat, askari baquvvat mamlakat boy bo'lur», - demagan, mardlar kasbini tanlaganlar doimo e'zozda ekaniga yana bir karra amin bo'lasiz.

1-boshlovchi:

*Qadamidan o't chaqnaydi,
Tomirida Temur qoni.
Shunqori bor el qo'rqmaydi,
Ortar olqish, sharaf-shoni,
Alp qomatli polvonlari,
Ona Vatan posbonlari.*

2-boshlovchi:

*Vatanimiz O'zbekiston,
Ushalmoqda armonlari.
Madhiyasi tilda doston,
Dardiga em -darmonlari.
Yurtiga jon-qurbonlari,
Ona Vatan posbonlari.*

1-boshlovchi: Mana, bayram tadbirimiz ham nihoyasiga yetib boryapti, barchalaringizni mamlakatimiz hayotidagi qutlug' sana - Vatan himoyachilari kuni va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari o'n olti yilligi bilan chin qalbdan yana bir bor muborakbod etamiz.

2-boshlovchi: Sizlarga sihat-salomatlik, baxt-saodat, yaxshi kayfiyat, o'qish va ishlaringizda omad yor bo'lishini tilaymiz. Xonadonlaringizdan fayzu baraka arimasin! Yurtimiz tinch, xalqimiz omon bo'lsin!

